# I. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4702,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (68,1 %) ni tashkil etdi.




B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,
C - Ishlab chiqaradigan sanoat,
D - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,
E - Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da**




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning 9,8 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 9,1 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoatda - 1,0 % ga va elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 1,0 % o‘sishi kuzatildi.

****Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi*** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %** *da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 329,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,0 % ini tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3202,9 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 68,1 % ini tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1380,4 tonna to’qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 111,2 % ni), 633,4 ming litr aroq mahsulotlari ishlab chiqarilib (114,8% ni), 1016 tonna plastmassadan quvurlar, trubkalar va shlanglar (125,7 % ni) yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi va 5,2 ming tonna neft (68,1 %), 30,6 ming tonna suyultirilgan propan va butan (86,3%), 35 022,2 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (95,3 %), 7 441,0 tonna paxtadan yigirilgan ip (95,6 %) kamayishi kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %** *da*



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar -mart | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *tonna* | **5,2** | **7,7** | **-2,5** |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *tonna* | **7 441,0** | **7 781,0** | **-341,0** |
| **Aroq,** *ming litr* | **633,4** | **551,9** | **81,5** |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | **35,0** | **36,7** | **-1,7** |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** *tonna* | **16 479,4** | **30 707,2** | **-14 227,8** |
| **O‘simlik yog‘i (tozalanmagan),** *t.* | **502,0** | **1 249,0** | **- 983,0** |

### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash
*(2022- yilning yanvar-mart oylarida)*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 139,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (24,3 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,0 % ga o‘sish kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln. kvt/s* | **3 155,3** | **3 511,1** | **-355,8** |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | **827,6** | **828,9** | **-1,3** |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | **14,7** | **12,1** | **2,6** |
| **Oqova suvlarni shlami,** *mlrd. so‘m* | **3,5** | **2,9** | **0,6** |

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 832,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino, pivo va aroq mahsulotlari 7,2 %, (2021- yil yanvar-mart oylarida 4,7 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 24,8 % ni, shuningdek, Yakkabog' tumaniga 8,9 % ni, Shahrisabz shahri 8,0 % ni, Koson tumanida 7,2 % ni hamda Kitob va Chiroqchi tumanlariga mos ravishda 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat (2,7 %) ga o'sgan. Shu bilan birga yuqori darajada o'sish ko'rsatkichi Yakkabog' tumani (108,2 %) ga, Qarshi shahri (103,9 %) ga, Qamashi tumani (103,4 %) ga, Kitob tumani (102,4 %) ga, hamda Nishon tumanida (101,4 %) qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2022- yilning yanvar-mart oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 842,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,9 % ni tashkil etdi.

## Qashqadaryo viloyati hududlari bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*2022- yilning yanvar-mart oylarida*

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 832,0 | 100,0 | 102,7 |
| Qarshi shahar | 206,7 | 24,8 | 103,9 |
| Shahrisabz shahar | 66,3 | 8,0 | 100,0 |
| G'uzor | 23,4 | 2,8 | 101,6 |
| Dehqonobod | 23,3 | 2,8 | 100,3 |
| Qamashi | 40,6 | 4,9 | 103,4 |
| Qarshi | 47,3 | 5,7 | 100,9 |
| Koson | 59,5 | 7,2 | 100,2 |
| Kitob | 58,8 | 7,1 | 102,4 |
| Mirishkor | 40,3 | 4,8 | 100,1 |
| Muborak | 19,4 | 2,3 | 100,2 |
| Nishon | 42,3 | 5,1 | 101,4 |
| Kasbi | 22,6 | 2,7 | 98,9 |
| Chiroqchi | 58,7 | 7,1 | 100,5 |
| Shahrisabz | 49,3 | 5,9 | 100,9 |
| Yakkabog' | 73,8 | 8,9 | 108,2 |

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-mart oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **4702,4** | **100,0** | **104,7** |
| **Qarshi shahar** | **608,7** | **13,0** | **105,2** |
| **Shahrisabz shahar** | **71,3** | **1,5** | **102,7** |
| **G’uzor** | **832,1** | **17,7** | **101,4** |
| **Dehqonobod** | **246,4** | **5,2** | **123,5** |
| **Qamashi** | **137,9** | **3,0** | **113,5** |
| **Qarshi** | **426,2** | **9,1** | **118,4** |
| **Koson** | **166,4** | **3,5** | **100,8** |
| **Kitob** | **79,0** | **1,7** | **100,6** |
| **Mirishkor** | **177,7** | **3,8** | **141,4** |
| **Muborak** | **159,6** | **3,4** | **104,2** |
| **Nishon** | **1073,2** | **22,8** | **90,3** |
| **Kasbi** | **386,0** | **8,2** | **86,8** |
| **Chiroqchi** | **95,4** | **2,0** | **86,0** |
| **Shahrisabz** | **85,8** | **3,3** | **101,1** |
| **Yakkabog’** | **157,0** | **3,3** | **100,6** |

## Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % *da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nishon tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 22,8 % ni) hamda G‘uzor (17,7 %), Qarshi shahri (12,9 %), Qarshi tumani (9,1 %), Kasbi tumani (8,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Shahrisabz shahri (1,5 %), Kitob tumani (1,7 %) hamda Shahrisabz (1,8 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida aholi jon boshiga sanoat va ist’emol mahsulotlari ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-mart oylarida*

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumani (6 725,2 ming so‘m), G‘uzor tumani (3 909,7 ming so‘m) va Qarshi shahrida (2 140,5 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 376,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 243,6 ming so‘m bo‘lgan holda, Qarshi shahrida 725,5 ming so‘mni, Shahrisabz shahrida 463,6 ming so‘mni, Mirishkor tumanida 324,3 ming so‘mni, Yakkabog‘ tumanida 271,8 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2022- yilning yanvar-mart oylarida, ming so‘m)*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | 1 376,7 | 243,6 |
| Qarshi sh. | 2 140,5 | 725,5 |
| Shahrisabz sh. | 498,3 | 463,7 |
| G‘uzor | 3 909,7 | 109,9 |
| Dehqonobod | 1 605,7 | 151,6 |
| Qamashi | 490,2 | 144,2 |
| Qarshi | 1 640,4 | 182,0 |
| Koson | 557,9 | 199,7 |
| Kitob | 290,7 | 216,3 |
| Mirishkor | 1 425,1 | 324,4 |
| Muborak | 1 763,9 | 214,4 |
| Nishon | 6 725,2 | 265,2 |
| Kasbi | 1 889,1 | 110,8 |
| Chiroqchi | 220,1 | 135,6 |
| Shahrisabz | 376,8 | 216,6 |
| Yakkabog‘ | 578,2 | 271,8 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2022- yilning yanvar-mart oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 119,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98,0 %), Shahrisabz tumanida (82,3 %), Yakkabog‘ tumanida (77,6 %) hamda Shahrisabz shahrida (77,6 %) kuzatildi.




Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nishon tumani (4,0 %), G‘uzor tumani (4,6 %) va Kasbi tumani (5,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
## (2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 871 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 893 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,4 %) Qarshi shahriga, 533 tasi (10,9 %) Kitob tumaniga, 440 tasi (9,0 %) Chiroqchi tumaniga, 433 tasi (8,9 %) Yakkabog‘ tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 321 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 39 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 14,1 %) Qarshi shahrida, 33 tasi (10,3 %) Kitob tumanida, mos ravishda 30 tadan (9,3 %) Qamashi va Qarshi tumanlarida, 28 tasi (8,7 %) Dehqonobod tumanida, 26 tasi (8,1 %) G‘uzor tumanida tashkil etildi.